

# “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan asosiy prognoz ko‘rsatkichlar ijrosini ta’minlanishi yuzasidan

## 2024-yil 1-noyabr holatiga

### YIG‘MA AXBOROT-TAHLILIIY MA’LUMOTNOMA

#### 11. 2024-yilda xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash (21-25 jadvallar)

**Xodimlar tarkibi.** Bugungi kunda “O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarida **28 101 nafar** (2023-yil yakunida **29 876 nafar**) ishchi-xodimlar va xizmatchilar mehnat qilib kelayotgan bo‘lib, ulardan:

| Erkaklar                   |        | Ayollar |        | 30 yoshgacha yoshlar |        | 30-50 yosh |        | Boshqaruv xodimlari |       | Mutaxassis xodimlar |       | Asosiy ishlab chiqarish xodimlari |        |
|----------------------------|--------|---------|--------|----------------------|--------|------------|--------|---------------------|-------|---------------------|-------|-----------------------------------|--------|
| 2023-yil yakunlari         |        |         |        |                      |        |            |        |                     |       |                     |       |                                   |        |
| 19 877                     | 65,5 % | 9 999   | 34,5 % | 6 046                | 23%    | 18 351     | 60%    | 2 083               | 7%    | 3 031               | 10,1% | 20 474                            | 68,5 % |
| 2024-yil I chorak yakuni   |        |         |        |                      |        |            |        |                     |       |                     |       |                                   |        |
| 18 909                     | 66%    | 9 745   | 34%    | 5 251                | 18,3 % | 18 047     | 63,9 % | 1 943               | 6,8 % | 2 969               | 10,4% | 19 587                            | 68,4 % |
| 2024-yil II chorak yakuni  |        |         |        |                      |        |            |        |                     |       |                     |       |                                   |        |
| 18 772                     | 66%    | 9 694   | 34%    | 5 124                | 18%    | 18 048     | 63,4 % | 1 944               | 6,8 % | 2 955               | 10,4% | 19 443                            | 68,3 % |
| 2024-yil III chorak yakuni |        |         |        |                      |        |            |        |                     |       |                     |       |                                   |        |
| 18 604                     | 66%    | 9 576   | 34%    | 4 900                | 17%    | 17 908     | 63,5 % | 1 616               | 5,7 % | 2 902               | 10,3% | 19 585                            | 69,5 % |
| 2024-yil 10 oylilik yakuni |        |         |        |                      |        |            |        |                     |       |                     |       |                                   |        |
| 18548                      | 66%    | 9553    | 34%    | 4855                 | 17%    | 17891      | 63,7 % | 1 610               | 5,7 % | 2 896               | 10,3% | 19 526                            | 69,5 % |

#### 2024-yil yanvar-oktyabr oylarida:

##### Xodimlar tarkibi

Tizim korxonalariga **740 nafar** (2023-yilda **1 056 nafar**) xodimlar **yangi qabul qilingan** bo‘lib, **1518 nafar** (2023-yilda **1 718 nafar**) xodimlar bilan **mehnat shartnomalari bekor** qilingan.

Ishga qabul qilingan xodimlarning **42 nafari** (2023-yilda **74 nafar**) boshqaruv, **127 nafari** (2023-yilda **176 nafar**) mutaxassis va **369 nafari** (2023-yilda **449 nafar**) asosiy ishlab chiqarish xodimlariga to‘g‘ri keladi.

**Joriy yilning 1-noyabr holatiga** tizim korxonalarida bo‘yicha bo‘sh ish o‘rinlari soni (vakant) **370 ta** (2023-yilda **412 tani**) ya’ni, shtat soniga nisbatan **1,31%** tashkil qilmoqda.

Hisobot davrida xodimlar qo‘nimsizlik darajasi **5,0%** ni (2023-yilda **3 %**) tashkil etdi.

Xozirgi kunda **5 326 (19%) nafar** oliy, **13 126 (46,7%) nafar** o‘rta-mahsus va **9 649 (34,3%) nafar** o‘rta ma’lumotli xodimlar tashkil etadi. Shuningdek, **17 nafar** boshqaruv xodimlari ilmiy unvonlarga ega.

(2023-yilda **5 559 (19%) nafar** oliy, **13 888 (46,5%) nafar** o‘rta-mahsus va **10 329 (34,5%) nafar** o‘rta ma’lumotli xodimlar tashkil etadi. Shuningdek, **19 nafar** boshqaruv xodimlari ilmiy unvonlarga ega bo‘lgan).

##### Xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish

“O‘z kimyosanoat” AJ tizimidagi korxonalar tomonidan 2024-yilda jami **6632 nafar** xodimlar malakasini oshirish rejalashtirilgan. Ulardan, respublika o‘quv markazlarida **2870 nafar** va korxonaning ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda **3762 nafar** xodimlar ta’lim olishi uchun umumiy hisobda **4 mlrd** so‘mdan ortiq mablag‘ sarflanishi rejalashtirilgan.

Joriy yilda **mahalliy** oliy ta’lim muassasalarida jami **674 nafar** mutaxassislar tayyorlanmoqda. **Jumladan:**

- D.I.Mendelev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toshkent shahridagi filiali - **600 nafar**;
- Toshkent kimyo-texnologiya instituti - **9 nafar**;
- Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti - **12 nafar**;
- Toshkent davlat texnika universiteti - **6 nafar**;
- O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti – **4 nafar**;
- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti - **3 nafar**;
- Farg‘ona politexnika instituti - **28 nafar**;
- boshqa OTMLar - **12 nafar**.

**Xorijiy** oliy ta’lim muassasalarida jami **16 nafar**, shu jumladan:

- Rossiyaning Tomsk politexnika universitetida - **2 nafar**;
- “Koreya-O‘zbekiston ilmiy-tadqiqot va loyiha instituti – Kimyo texnologiya innovatsiya markazini tashkil etish” investitsiya loyihasi doirasida – **14 nafar** (**4 nafar** doktorant va **10 nafar** magistrant).

**Joriy yilning 10 oyligida** xodimlar tayyorlashga **862 mln. so‘mdan** ortiq mablag‘ sarflandi.

Jami **4690 nafar** ishchi-xodimlarning malakasi oshirilgan. Ulardan, respublika o‘quv markazlarida **1521 nafar** va korxonaning o‘zida **3169 nafar** jami **2 mlrd 615 mln** (xodimlarning malakasini oshirishga **1 mlrd 753 mln**) so‘mdan ortiq mablag‘ sarflandi.

**“O‘z kimyosanoat” AJ tomonidan Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan birgalikda amalga oshirilayotgan “O‘zbekistonda kimyo texnologiyalari markazining salohiyatini oshirish” loyihasi bo‘yicha**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 28-dekabrda PQ-67-son qarori ijrosi doirasida **“Koreya-O‘zbekiston ilmiy-tadqiqot va loyiha instituti – Kimyo texnologiya innovatsiya markazini tashkil etish”** investitsiya loyihasi doirasida Koreya xalqaro hamkorlik agentligi

(KOICA) bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan holda, ushbu ilmiy markazni malakali kadrlar bilan ta‘minlash orqali uning salohiyatini oshirish belgilangan bo‘lib, 2022-yil 24-iyunda Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan “O‘zbekiyosanoat” AJ o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi xalqaro shartnoma – muhokama bayonnomasi imzolandi.

*Ma‘lumot uchun: Loyiha doirasida ilmiy markaz salohiyatini oshirish bo‘yicha fan doktorlari (PhD), magistrantlar hamda laboratoriya xodimlarini tayyorlash, shuningdek, ilmiy markaz faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha birgalikda Bosh reja ishlab chiqish, seminarlar tashkil etish hamda xodimlar malakasini oshirish bo‘yicha Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tomonidan 7 mln. dollar miqdoridagi grant mablag‘lari ajratilishi belgilangan.*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-maydagi 06/1-3254-son topshirig‘iga muvofiq ilmiy markazni malakali kadrlar bilan ta‘minlash maqsadida 2023-2027-yillar oralig‘ida **10 nafar doktorantura** (PhD) va **12 nafar magistratura** yo‘nalishlariga Koreya Respublikasiga kimyo texnologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishga yuborish bo‘yicha 2022-yilning iyun oyidan boshlab o‘tkazib kelinayotgan tanlovlar doirasida bugungi kunga qadar **10 nafar magistratura** va **4 nafar doktoranturaga** munosib nomzodlar saralab olinib, bahorgi va kuzgi o‘quv yillari uchun mos ravishda 2023-yil mart va avgust hamda 2024-yil mart oyida va 7-sentyabr kuni Koreya Respublikasiga o‘qishga yuborildi.

Ishlar davom ettirilmoqda.

Salohiyatli yoshlarni saralash, korxonalarda mavjud bo‘lgan muammolar yechimini topish salohiyatiga ega yoshlarni aniqlash, ularni zahiraga olish, iqtidorli bitiruvchi talabalarni aniqlash va ishga taklif qilish bilan tarmoqni malakali kadrlar bilan ta‘minlash maqsadida joriy yilning 27-may – 1-iyun kunlari “Barqaror rivojlantirish va yashil iqtisodiyot” Xalqaro kimyo haftaligi doirasida Toshkent kimyo-texnologiya instituti, D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filiali, Yangi O‘zbekiston universiteti talabalari va tarmoq korxonalarining yosh mutaxassislaridan **200 nafari** uchun “Kimyo sanoati yosh mutaxassislari ilmiy-intelektual forumi” o‘tkazildi.

Sohaviy OTMLarning moddiy-texnik bazani mustahkamlash, laboratoriya sharoitlarini yaxshilash, zaruriy kimyoviy reagentlar bilan ta‘minlash va boshqalarga jami **2,577 mlrd** so‘m, ya‘ni D.I.Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filialiga **2 mlrd** so‘m, Toshkent kimyo-texnologiya institutiga jami **577,7 mln** so‘mlik moliyaviy ko‘mak ko‘rsatildi.

**Amaliyotlar.** Joriy yilda tizim korxonalarida jami **2080 nafar** (oliy ta‘lim muassasalarining **1447 nafar**, professional ta‘lim muassasalarining esa **633 nafar**) talabalarga amaliyotlar tashkil etildi. Amaliyot davrida ularga korxonalarining **278 nafar** malakali mutaxassislari ustoz sifatida biriktirildi. Shu bilan birga, jami **32**

**nafar** (oliy ta'lim muassasalarining **29 nafar**, professional ta'lim muassasalarining esa **3 nafar**) professor-o'qituvchilari uchun tarmoq korxonalarida stajirovkalar tashkil etildi.

### **Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish yo'nalishida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrda **PQ-4939-son qarori** ijrosi yuzasidan 2022-2023-yillarda kimyo sohasiga oid oliy va professional ta'limning sifatini oshirish, mehnat bozorining rivojlanishi tendensiyalarini inobatga olgan holda tarmoq korxonalarida tarkibida **6 ta Malakalarni baholash markazlari** tashkil etilgan bo'lib, joriy yil boshidan bugungi kungacha qadar markazlar tomonidan jami **940 nafar** jismoniy shaxslarning bilim va malakalari test sinovlaridan o'tkazildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vairligining 2023-yil 15-dekabrda "Kasbiy standartning maketiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi **212-son buyrug'ining** ijrosi yuzasidan, "O'z kimyosanoat" AJ Tarmoq Kengashi tomonidan kasbiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha 2024-yilda jami **22 ta kasbiy standartlar** ishlab chiqilib (belgilangan **reja 220%** (+12 ta) bajarildi), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligida ro'yxatdan o'tkazish maqsadida mahsus platformaga joylashtirildi.